



**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI REKTORINING
BUYRUG'I**

23 oktabr 2025 yil

240I-sonli

Qarshi sh.

**“Korrupsiyani emas, bilimni tanla!” mavzusida “Eng yaxshi rasm” va
“Eng yaxshi videorolik” nominatsiyasi bo’yicha tanlovlarini o’tkazish
to’g’risida**

O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan joriy yilning 1-avgustdagi “Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining videoselektor yig’ilishi” 64-son bayonining 3-bandining ijrosini ta’minlash maqsadida Qarshi davlat universitetida tahsil olayotgan talaba-yoshlarda korrupsiyaga qarshi murosasiz kurashish hissini shakllantirish hamda ularning faolligini oshirish maqsadida 2025-2026 o‘quv yilida Aksilkorrupsiya oyligi doirasida talaba-yoshlar o‘rtasida o‘tkaziladigan “Korrupsiyani emas, bilimni tanla!” mavzusida “Eng yaxshi rasm” va “Eng yaxshi videorolik” nominatsiyasi bo’yicha tanlovlarini o‘tkazish maqsadida

BUYURAMAN:

1. Qarshi davlat universitetida tahsil olayotgan talaba-yoshlarda korrupsiyaga qarshi murosasiz kurashish hissini shakllantirish hamda ularning faolligini oshirish maqsadida Aksilkorrupsiya oyligi doirasida talaba-yoshlar o‘rtasida o‘tkaziladigan “Korrupsiyani emas, bilimni tanla!” mavzusida “Eng yaxshi rasm” va “Eng yaxshi videorolik” nominatsiyasi bo’yicha tanlovlarini o‘tkazilishi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. “Korrupsiyani emas, bilimni tanla!” mavzusida “Eng yaxshi rasm” va “Eng yaxshi videorolik” nominatsiyasi bo’yicha tanlovlarini o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bo’yicha Tashkiliy qo‘mita tarkibi 1-ilovaga muvofiq, tanlovlar Nizomi 2.1-2.2-ilovaga, Hakamlar hay’ati tarkibi 3.1-3.2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish bo‘limi boshlig‘i (Sh.Akramov), Yoshlar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i (N.Pardaqulov), Korrupsiyaga qarshi

kurashish “Komplayens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi boshlig‘i (X.Ismatov) va fakultet dekanlariga:

2025-yilning 27-oktyabrdan 10-noyabr kunlari “Korrupsiyani emas, bilimni tanla!” mavzusida tashkil etiladigan tanlovlarini talabalar o‘rtasida keng tarzda targ‘ib qilish va ularning faol ishtirokini ta‘minlash;

27-oktyabrdan 7-noyabr kunlari “Korrupsiyani emas, bilimni tanla!” mavzusida tanlovlarining fakultet bosqichi, 10-noyabr kuni universitet bosqichini yuqori saviyada tashkil etish, tanlovlarning universitet bosqichi g‘oliblarini munosib tarzda rag‘batlantirish choralari ko‘rish vazifalari yuklatilsin.

4. Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor (X.Djurayev), Reja-moliya bo‘limi boshlig‘i (S.Xolboyev), universitet bosh hisobchi(A.Shodiyev)larga: “Korrupsiyani emas, bilimni tanla!” mavzusida o‘tkaziladigan “Eng yaxshi rasm” hamda “Eng yaxshi videorolik” nominatsiyasi bo‘yicha tanlovlarining universitet bosqichi g‘olib hamda sovrindorlarini 1-o‘rin uchun 1.600.000 (bir million olti yuz ming) so‘m, 2-o‘rin uchun 1 300 000 (bir million uch yuz ming) so‘m, 3-o‘rin uchun 1 000 000 (bir million) so‘m miqdorida universitetning talabalarni rahbatlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan moddiy rag‘batlantirish vazifasi yuklatilsin.

5. Universitet matbuot kotibi (O.Yusupov)ga:

Tanlov bilan bog‘liq barcha jarayonlar va yakuniy natijalarni ommaviy-axborot vositalari, universitet sayti hamda ijtimoiy tarmoqdagi sahifalari orqali keng yoritib borish vazifasi yuklatilsin.

6. Universitet devonxona mudirasi (G.Gafiatulina)ga:

Mazkur buyruqni o‘rnatilgan tartibda barcha mas‘ullarga o‘z vaqtida yetkazish vazifasi yuklatilsin.

7. Ushbu buyruq ijrosining nazorati Yoshlar masalalari va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor (O.Kuziyev) zimmasiga yuklatilsin.

Rektor



D.Nabiyev

**“Korrupsiyani emas, bilimni tanla!” mavzusida “Eng yaxshi rasm” va
“Eng yaxshi videorolik” nominatsiyasi bo‘yicha tanlovlariga
tayyorgarlik ko‘rish va ularni o‘tkazish
TASHKILIY QO‘MITASI TARKIBI**

№	F.I.Sh.	Lavozimi
1	O.Kuziyev	Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor (<i>Tashkiliy qo'mita raisi</i>)
2	X.Ismatov	Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplayens-nazorat” tizimini boshqarish bo'limi boshlig'i (<i>Tashkiliy qo'mita raisi o'rinbosari</i>)
3	Sh.Akramov	Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish bo'limi boshlig'i (<i>Tashkiliy qo'mita a'zosi</i>)
4	N.Pardaqulov	Yoshlar bilan ishlash bo'limi boshlig'i (<i>Tashkiliy qo'mita a'zosi</i>)
5	S.Xolbayev	Reja-moliya bo'limi boshlig'i (<i>Tashkiliy qo'mita a'zosi</i>)
6	A.Shodiyev	Universitet bosh hisobchisi (<i>Tashkiliy qo'mita a'zosi</i>)
7	N.Srajidinova	Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplayens-nazorat” tizimini boshqarish bo'limi bosh mutaxassisi (<i>Tashkiliy qo'mita a'zosi</i>)
8	O.Yusupov	Universitet Axborot xizmat bo'limi Matbuot kotibi (<i>Tashkiliy qo'mita a'zosi</i>)
9	D.Ravshanov	Universitet yoshlar ittifoqi BT yetakchisi (<i>Tashkiliy qo'mita a'zosi</i>)
10	Barcha fakultet dekanlari	(<i>Tashkiliy qo'mita a'zolari</i>)
11	Sh.Axmedov	Korrupsiyaga qarshi kurashish komplayens-nazorat tizimini boshqarish bo'limi bosh mutaxassisi (<i>Mas'ul kotib</i>)

“Korrupsiyani emas, bilimni tanla!” mavzusida o‘tkaziladigan rasmlar tanlovi

NIZOMI

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom universitet talabalari o‘rtasida “Korrupsiyani emas, bilimni tanla!” mavzusidagi rasmlar tanlovini (keyingi o‘rinlarda – Tanlov deb yuritiladi) tashkil etish va o‘tkazish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Tanlovda Qarshi davlat universitetida kunduzgi ta’lim shakli asosida tahsil olayotgan talabalar ishtirok etishi mumkin.

3. Tanlovning fakultet va universitet bosqichini tashkil etish hamda o‘tkazish jarayoni universitet Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplayens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi, Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish bo‘limi hamda Yoshlar bilan ishlash bo‘limi hamkorligida amalga oshiriladi.

II. Tanlovning maqsadi va vazifalari

4. Tanlovni tashkil etishdan asosiy maqsad – talaba-yoshlarda korrupsiyaga qarshi huquqiy ong va madaniyatini shakllantirish, unga qarshi murosasiz munosabatda tarbiyalash hamda yoshlarning mazkur illatga qarshi kurashishga keng jalb qilish, talaba-yoshlar o‘rtasida korrupsiyaning mohiyati va oqibatlari bo‘yicha ta’sirchan rasmlar(ijodiy ishlar)ni ishlab chiqishdan iborat.

5. Tanlovni tashkil etish orqali quyidagi vazifalar bajarilishi ko‘zda tutiladi:

- universitetda korrupsiyaga qarshi ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish;

- talaba-yoshlarning korrupsiya va uning o‘ziga xos xususiyati, uning oldini olish masalalari yuzasidan bilim va ko‘nikmalarini oshirish;

- talabalarning “Korrupsiyani emas, bilimni tanla!” mavzusidagi rasmlarni munosib baholab, ularni viloyat hamda respublika bosqichlariga taqdim etish.

6. Tanlov quyidagi ketma-ketlikdagi bosqichlarini o‘z ichiga oladi:

- Tanlovni o‘tkazish haqida e’lon qilish;

- Tanlov Hakamlar hay'ati tarkibini shakllantirish va tasdiqlash;
- Tanlov ishtirokchilaridan rasmlarni qabul qilish;
- Tanlov Hakamlar hay'ati tomonidan g'oliblarni aniqlash;
- Tanlov tashkilotchilari tomonidan g'oliblarni taqdirlash.

III. Tanlovni o'tkazish tartibi

7. Tanlov universitet miqyosida ikki bosqichda quyidagi muddatlarda o'tkaziladi:

birinchi bosqich: fakultet bosqichi – 2025-yil 27-oktyabrdan 7-noyabr kunlari;

ikkinchi bosqich: universitet bosqichi – 2025-yil 10- noyabr kuni fakultet bosqichida eng yuqori uch o'ringa ega bo'lgan talabalar ishlari baholanadi hamda tashkil etiladi.

8. Tanlovning 1-bosqichini o'tkazish tartibi:

1-bosqich. Tanlovning 1-bosqichi fakultetlar kesimida tashkil etiladi.

Ushbu bosqichda ishtirokchilarning tanlovda ishtirokini tashkillashtirish va ta'minlash uchun fakultet dekanlari, Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosarlari mas'ul hisoblanadi.

9. Tanlovning 2-bosqichi (final)ni o'tkazish tartibi:

2-bosqich universitet bosqichi hisoblanadi. Unda:

Har bir fakultetdan dastlabki uchta o'rinni olgan talabalarning rasmlari Hakamlar hay'ati tomonidan ko'rib chiqiladi va baholanadi;

Tanlov asosiy rasmlarning keng g'oyasiga ahamiyat beriladi, rasmlar (ijodiy ishlar) A-3 Formatidan kichik bo'lmasligi kerak. Bundan tashqari rasmlarda izoh berish o'zbek, rus va ingliz tillarida yozilishi mumkin hamda buyoqlar turlari erkin holda foydalanishi mumkin.

Rasmlarda muallifi aniq familiyasi, ismi, fakultet yo'nalishi va bosqichi aniq ko'rsatilishi shart.

10. Tanlovning ishtirokchisi o'zgani g'oyasidan foydalanishi taqiqlanadi.

IV. G'oliblarni baholash va taqdirlash tartibi

11. Tanlovda Hay'at tomonidan ishtirokchilarning rasmlari (ijodiy ish) quyidagi baholash mezonlari asosida o'rganilib, jami 100 ball bilan baholanadi:

- rasmning tanlangan mavzu doirasida bayon etilganligi - 25 ball;
- tanqidiy nuqtai nazar mavjudligi va yetarlicha asoslantirilganligi - 40 ball;
- fikrlarning originalligi, boshqa manbalardan ko'chirilmaganligi - 35 ball;

12. Tanlov natijalari bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi. Bayonnoma barcha Hay'at a'zolari tomonidan imzolanadi.

13. Tanlov yakunlari bo'yicha qabul qilingan hay'at qaroridan norozi bo'lingan taqdirda, bir ish kuni ichida hay'atga shikoyat qilinishi mumkin.

14. Hakamlar hay'ati a'zolarining xulosalari asosida Tanlovning universitet bosqichi g'oliblari (1-, 2-, 3-o'rin) aniqlanadi.

15. Tanlovning universitet bosqichida yuqori, ya'ni 1-, 2-, 3-o'rinlarni egallagan talabalar universitet rahbariyati tomonidan "Eng yaxshi rasm" nominatsiyasi bo'yicha faxriy yorliq va quyidagi miqdordagi pul mukofotlari bilan rag'batlantiriladi:

1-o'rin uchun – 1 600 000 (bir million olti yuz ming) so'm miqdorida;

2-o'rin uchun – 1 300 000 (bir million uch yuz ming) so'm miqdorida;

3-o'rin uchun – 1 000 000 (bir million) so'm miqdorida.

V. Yakuniy qoidalar

16. Hay'at kotibi tanlovga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazishda yagona ilmiy-uslubiy yondashuvni ta'minlaydi, tanlovni olib borilishi bo'yicha tegishli hujjatlarni yuritadi, sinov topshiriqlarini tayyorlaydi.

17. Tanlovning Nizomiga rioya qilmagan shaxslar Hakamlar hay'ati qarori bilan tanlovdan chetlashtiriladi.

18. Tanlovga rasmlar (ijodiy ish) taqdim etgan har bir ishtirokchi o'z ijodiy ishi(rasm)ning mualliflik huquqi egasi ekanligiga kafolatlashi va uchinchi shaxslarning intellektual huquqlarini buzmasligini tasdiqlashi shart.

Rasmlarda uchinchi shaxslarning intellektual huquqlari obyektlaridan foydalanilgan taqdirda, ishtirokchi mualliflarni ko'rsatishi va ishtirokchining ushbu

intellektual huquq obyektidan foydalanish huquqiga ega ekanligini tasdiqlashi shart.

Uchinchi shaxslarning intellektual huquqlarini buzganligi uchun tanlov ishtirokchilari amaldagi qonunchilikka muvofiq javobgar bo'ladilar.

19. Tanlov ishtirokchilari tomonidan taqdim etilgan rasmlar (ijodiy ishlar) uchinchi tomonlarning intellektual huquqlarini buzgan bo'lsa, ushbu holat yuzasidan tanlov tashkilotchilari javobgar hisoblanmaydi.

20. Nomzodlar tomonidan tanlovda ishtirok etish uchun taqdim etilgan rasmlar (ijodiy ishlar) bo'yicha izoh yoki sharh berilmaydi va ular egalariga qaytarilmaydi.

Murojaatlar uchun tel: +(998)93-152-00-82 Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish bo'limi boshlig'i (Sh.Akramov), tel: +(998)97-319-00-12 Korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplayens-nazorat" tizimini boshqarish bo'limi bosh mutaxassisi (N.Srajidnova).

“Korrupsiyani emas, bilimni tanla!” mavzusida o‘tkaziladigan videoroliklar tanlovi

NIZOMI

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom universitet talabalari o‘rtasida “Korrupsiyani emas, bilimni tanla!” mavzusidagi videoroliklar tanlovini (keyingi o‘rinlarda – Tanlov deb yuritiladi) tashkil etish va o‘tkazish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Tanlovda Qarshi davlat universitetida kunduzgi ta’lim shakli asosida tahsil olayotgan talabalar ishtirok etishi mumkin.

3. Tanlovning fakultet va universitet bosqichini tashkil etish hamda o‘tkazish jarayoni universitet Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplayens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi, Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish bo‘limi hamda Yoshlar bilan ishlash bo‘limi hamkorligida amalga oshiriladi.

II. Tanlovning maqsadi va vazifalari

4. Tanlovni tashkil etishdan asosiy maqsad – talaba-yoshlarda korrupsiyaga qarshi huquqiy ong va madaniyatini shakllantirish, unga qarshi murosasiz munosabatda tarbiyalash hamda yoshlarning mazkur illatga qarshi kurashishga keng jalb qilish, talaba-yoshlar o‘rtasida korrupsiyaning mohiyati va oqibatlari bo‘yicha ta’sirchan targ‘ibot ishlarini ishlab chiqishdan iborat.

5. Tanlovni tashkil etish orqali quyidagi vazifalar bajarilishi ko‘zda tutiladi:

- universitetda korrupsiyaga qarshi ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish;

- talaba-yoshlarning korrupsiya va uning o‘ziga xos xususiyati, uning oldini olish masalalari yuzasidan bilim va ko‘nikmalarini oshirish;

- talabalarining “Korrupsiyani emas, bilimni tanla!” mavzusidagi ijodiy ishlarini munosib baholab, ularni taqdirlash.

6. Tanlov quyidagi ketma-ketlikdagi bosqichlarini o‘z ichiga oladi:

- Tanlovni o‘tkazish haqida e’lon qilish;

- Tanlov Hakamlar hay'ati tarkibini shakllantirish va tasdiqlash;
- Tanlov ishtirokchilaridan videoroliklarni qabul qilish;
- Tanlov Hakamlar hay'ati tomonidan g'oliblarni aniqlash;
- Tanlov tashkilotchilari tomonidan g'oliblarni taqdirlash.

III. Tanlovni o'tkazish tartibi

7. Tanlov universitet miqyosida ikki bosqichda quyidagi muddatlarda o'tkaziladi:

birinchi bosqich: fakultet bosqichi – 2025-yil 27-oktyabrdan 7-noyabr kuni;

ikkinchi bosqich: universitet bosqichi – 2025-yil 10-noyabr kuni fakultet bosqichida eng yuqori uch o'ringa ega bo'lgan talabalar ishlari baholanadi hamda tashkil etiladi.

8. Tanlovning 1-bosqichini o'tkazish tartibi:

1-bosqich. Tanlovning 1-bosqichi fakultetlar kesimida tashkil etiladi.

Ushbu bosqichda ishtirokchilarning tanlovda ishtirokini tashkillashtirish va ta'minlash uchun fakultet dekanlari, Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosarlari mas'ul hisoblanadi.

9. Tanlovning 2-bosqichi (final)ni o'tkazish tartibi:

2-bosqich universitet bosqichi hisoblanadi. Unda:

Har bir fakultetdan dastlabki uchta o'rinni olgan talabalarning videoroliklari Hakamlar hay'ati tomonidan ko'rib chiqiladi va baholanadi;

Videoroliklar o'zbek, rus va ingliz tillarida yozilishi mumkin va davomiyligi 3 daqiqadan oshmasligi kerak. E'tirof etilgan videoroliklar telegram ijtimoiy <https://t.me/+W5lPmE-uxA45YWQy> (QarDu “Eng yaxshi videorolik” tanlovi) tarmog'iga yuborilishi va muallifi aniq familiyasi, ismi, fakultet yo'nalishi va bosqichi aniq ko'rsatilishi shart.

10. Tanlovning ishtirokchisi o'zgani telegram ijtimoiy tarmog'idan foydalanishi taqiqlanadi.

IV. G'oliblarni baholash va taqdirlash tartibi

11. Tanlovda Hay'at tomonidan ishtirokchilarning videoroliklari quyidagi baholash mezonlari asosida o'rganilib, jami 100 ball bilan baholanadi:

- videorolikning tanlangan mavzu doirasida bayon etilganligi - 25 ball;
- tanqidiy nuqtai nazar mavjudligi va yetarlicha asoslantirilganligi - 40 ball;
- fikrlarning originalligi, boshqa manbalardan ko'chirilmaganligi - 35 ball;

12. Tanlov natijalari bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi. Bayonnoma barcha Hay'at a'zolari tomonidan imzolanadi.

13. Tanlov yakunlari bo'yicha qabul qilingan hay'at qaroridan norozi bo'lingan taqdirda, uch ish kuni ichida hay'atga shikoyat qilinishi mumkin.

14. Hakamlar hay'ati a'zolarining xulosalari asosida Tanlovning universitet bosqichi g'oliblari (1-, 2-, 3-o'rin) aniqlanadi.

15. Tanlovning universitet bosqichida yuqori, ya'ni 1-, 2-, 3-o'rinlarni egallagan talabalar universitet rahbariyati tomonidan "Eng yaxshi videorolik" nominatsiyasi bo'yicha faxriy yorliq va quyidagi miqdordagi pul mukofotlari bilan rag'batlantiriladi:

1-o'rin uchun – 1 600 000 (bir million olti yuz ming) so'm miqdorida;

2-o'rin uchun – 1 300 000 (bir million uch yuz ming) so'm miqdorida;

3-o'rin uchun – 1 000 000 (bir million) so'm miqdorida.

V. Yakuniy qoidalar

16. Hay'at kotibi tanlovga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazishda yagona ilmiy-uslubiy yondashuvni ta'minlaydi, tanlovni olib borilishi bo'yicha tegishli hujjatlarni yuritadi, sinov topshiriqlarini tayyorlaydi.

17. Tanlovning Nizomiga rioya qilmagan shaxslar Hakamlar hay'ati qarori bilan tanlovdan chetlashtiriladi.

18. Tanlovga material taqdim etgan har bir ishtirokchi o'z materialining mualliflik huquqi egasi ekanligiga kafolatlashi va uchinchi shaxslarning intellektual huquqlarini buzmasligini tasdiqlashi shart.

Materiallarda uchinchi shaxslarning intellektual huquqlari obyektlaridan foydalanilgan taqdirda, ishtirokchi mualliflarni ko'rsatishi va ishtirokchining ushbu intellektual huquq obyektidan foydalanish huquqiga ega ekanligini tasdiqlashi shart.

Uchinchi shaxslarning intellektual huquqlarini buzganligi uchun tanlov ishtirokchilari amaldagi qonunchilikka muvofiq javobgar bo'ladilar.

19. Tanlov ishtirokchilari tomonidan taqdim etilgan materiallar uchinchi tomonlarning intellektual huquqlarini buzgan bo'lsa, ushbu holat yuzasidan tanlov tashkilotchilari javobgar hisoblanmaydi.

20. Nomzodlar tomonidan tanlovda ishtirok etish uchun taqdim etilgan materiallar bo'yicha izoh yoki sharh berilmaydi va ular egalariga qaytarilmaydi.

Murojaatlar uchun tel: +(998)77-106-67-77 Korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplayens-nazorat" tizimini boshqarish bo'limi bosh mutaxassisi (Sh.Axmedov), +(998)97-143-51-71 Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish bo'limi uslubchisi (U.Do'stmurodov).

**“Korrupsiyani emas, bilimni tanla!” mavzusida o‘tkaziladigan
rasmlar tanlovining
HAKAMLAR HAY’ATI TARKIBI**

No	F.I.Sh.	Lavozimi
1	I.Turaev	Rang tasvir kafedra mudiri, dotsenti (<i>Hakamlar hay’ati raisi</i>)
2	L.Ubaydullayev	Rang tasvir kafedrasi dotsenti (<i>Hakamlar hay’ati raisi o‘rinbosari</i>)
3	O.Mirzaev	Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi kafedra dotsenti (<i>Hakamlar hay’ati a’zosi</i>)
4	A.Sattorova	Rang tasvir kafedra katta o‘qituvchisi (<i>Hakamlar hay’ati a’zosi</i>)
5	N.Srajidinova	Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplayens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi bosh mutaxassisi (<i>Mas’ul kotib</i>)

**“Korrupsiyani emas, bilimni tanla!” mavzusida o‘tkaziladigan
videoroliklar tanlovining
HAKAMLAR HAY’ATI TARKIBI**

№	F.I.Sh.	Lavozimi
1	O.Kuziyev	Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo’yicha birinchi prorektor (<i>Hakamlar hay’ati raisi</i>)
2	X.Ismatov	Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplayens-nazorat” tizimini boshqarish bo’limi boshlig‘i (<i>Hakamlar hay’ati raisi o‘rinbosari</i>)
3	Sh.Akramov	Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish bo’limi boshlig‘i (<i>Hakamlar hay’ati a’zosi</i>)
4	O.Yusupov	Universitet Axborot xizmat bo’limi Matbuot kotibi (<i>Hakamlar hay’ati a’zosi</i>)
5	Z.Xalikov	Raqamli ta’lim texnologiyalari markazi boshlig‘i (<i>Hakamlar hay’ati a’zosi</i>)
6	N.Srajidinova	Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplayens-nazorat” tizimini boshqarish bo’limi bosh mutaxassisi (<i>Hakamlar hay’ati a’zosi</i>)
7	Sh.Axmedov	Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplayens-nazorat” tizimini boshqarish bo’limi bosh mutaxassisi (<i>Hakamlar hay’ati a’zosi</i>)
8	D.Ravshanov	Universitet yoshlar ittifoqi BT yetakchisi (<i>Hakamlar hay’ati a’zosi</i>)
9	U.Do‘stmurodov	Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish bo’limi uslubchisi (<i>Mas’ul kotib</i>)